



**Ilmiy amaliy
jurnal
№ 5 (7)
2026**

**YANGI
O'ZBEKISTON
IQTISODIYOTI**

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali* 5-son 2026 yil

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI
O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI

5

ISBN 978-9943-5256-3-4

Toshkent – 2026

MUNDARIJA

Minojiddinov A.A. Meva-sabzavot tarmog‘i korxonalarini boshqarishda tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarni takomillashtirish yo‘llari	8
Mirzayev A.T., Dilnozaxon M. O‘zbekistonda turizm marketingi samaradorligini baholash va uni takomillashtirishning integratsiyalashgan mexanizmi.....	12
Shavkatov A.Sh. O‘zbekistonda kichik biznes rivojlanishining institutsional va makroiqtisodiy asoslari.....	16
Махаммаджанов М.М. Инновационная трансформация банковского сектора Узбекистана: общесистемные тенденции и финансовые результаты.....	20
Sativaldiyeva G.X. IFRS 16 “Ijara” xalqaro standartiga muvofiq ijara hisobidagi o‘zgarishlar.....	24
Ismailov X.M. Aloqa korxonalari moliyaviy barqarorligini ta‘minlash metodologiyasini takomillashtirish masalalari.....	28
Yusubov I.I. Mintaqada iqtisodiyotni barqarorlashtirishda raqamli xizmatlarning rivojlanishi.....	32
Saidaxmedov N.X. Paxta-to‘qimachilik klasterlari faoiyatini shakllanishi va rivojlanishining zamonaviy nazariyalari.....	35
Istamqulov D.Q., Danyarova F.B. Milliy iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarni jalb qilishni takomillashtirish yo‘llari.....	40
Aipova I.I. Resurs samaradorligini baholashning nazariy usullari va ko‘rsatkichlari.....	43
Mirzaraximova A.A. Tijorat banklari tomonidan aloqa sohasini moliyalashtirish samaradorligini oshirish yo‘llari.....	49
Xalmirzaev A.A. Yer va suv resurslaridan samarali foydalanishda hududiy ixtisoslashuvning ahamiyati va iqtisodiy samaradorligi.....	53
Sidikov Z.A. Sirdaryo viloyatida sanoatlashtirish jarayonining hududiy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga ta‘siri.....	59
Usmanova N.Y. Raqamli iqtisodiyotda menejment qarorlarini qabul qilishda innovatsion texnologiyalarning roli.....	63
Ergashev R.X., Rajabaliyeva I.A. Transport-logistika infratuzilmasini raqamli texnologiyalar asosida rivojlantirish va uning samaradorligini oshirish.....	67
Raximova D.S. Barqaror restoran amaliyotlari: oziq-ovqat chiqindilarini kamaytirish va qayta ishlashning innovatsion yondashuvlari.....	70
Narzullayeva X.A. Investitsiya muhiti jozibadorligini oshirishning xalqaro tajribalari.....	76
Muxitdinov Sh.Z. Kichik agrobiznes subyektlarida mahsulotlar eksportini rivojlantirishga ta‘sir etuvchi omillar.....	84
No‘monov O.O‘. Agrotadbirkorlik subyektlarining eksport salohiyatiga ta‘sir etuvchi makroiqtisodiy va mikroiqtisodiy omillarni kompleks baholash.....	88
Yeshimbetov U.X. O‘zbekistonda qishloq xo‘jaligini barqaror rivojlantirishda tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish.....	92
Raximova K.N. Tadbirkorlik sharoitida yashil biznesni tashkil etish va rivojlantirishining o‘ziga xos xususiyatlari	97
Хошимов П.З., Тўрахожайев Х.Х. Ислоний банкларнинг ишлаш тамойиллари ва ислон молия тизимининг Ўзбекистон иқтисодиётига таъбиқи.....	100
Sattarov R.A. An integrated methodological framework for evaluating and forecasting interregional economic cooperation: an input-output approach (evidence from Uzbekistan).....	107
Farmanov J.Z. Mintaqada asalarichilik ekotizimining tamoyillari va ekologik-geografik xususiyatlarini takomillashtirish	111
Qurbonov A.B. Janubiy iqtisodiy rayonda qishloq xo‘jaligi orxonlarining tarkibiy o‘zgarishi va agrar kooperatsiyani rivojlantirish yo‘nalishlari.....	114
Тоштемуров Т.Т. Ўзбекистонда кичик тадбиркорлик субъектлари фаолиятини кенгайтиришда солиқ механизмларида фойдаланиш масалалари.....	119
Arziyev M.A. O‘zbekiston iqtisodiyotini transformatsiyalash sharoitida oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari.....	122
Maxkamova S.Sh. Ekologik innovatsiyalar orqali yerni oqilona boshqarishning tashkiliy va iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish.....	127
Olimova N.X. Yashil moliyalashtirishning rivojlanish tendensiyalari hamda hozirgi amaliyoti: milliy kontekst	137
Zaylobitdinova H.X. Davlat oliy ta‘lim muassasalarining tijorat faoliyatini samarali boshqarish strategiyalari.....	141
Komilov A.I. Evolution of the catering industry in the context of digital technologies.....	145

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali* 5-son 2026 yil

Sotvoldiyev N.N. Mamlakatimizda yashil iqtisodiyotni rivojlantirishda mehnat bozoriga ta'sir etuvchi omillar.....	149
O'rinov A.A. Sanoat tarmoqlarining investitsion imkoniyatlarini barqarorlik indikatorlari asosida boshqarish mexanizmlari.....	154
Ahmadaliyeva R.A. O'zbekistonda xufyona iqtisodiyotga qarshi kurashish samaradorligi.....	158
Uzganbayeva D.T., Alimova Sh.F. The role of investment strategies in transforming small business entities into large corporate structures.....	162
Goziyev M.Sh., Abdufattoyeva M. Sun'iy intellekt asosida iqtisodiy qarorlar qabul qilish samaradorligini oshirish.....	167
Qobilov H., Uzganbayeva D.T. O'zbekiston iqtisodiyotida xususiy tadbirkorlikning ro'li: so'nggi yillardagi islohotlar sharoitida iqtisodiy o'sish va bandlikka qo'shayotgan hissi.....	170
Sotiboldiyeva R., Uzganbayeva D.T. O'zbekistonda xotin-qizlar tadbirkorligini rivojlantirishda moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining ahamiyati.....	174
Маматкулов З.Ш. Хизмат кўрсатиш фаолиятининг шакллантириш ва бошқаришда хориж тажрибаларидан самарали фойдаланишнинг инновацион йўналишлари.....	179
Shamsiddinov P., Uzganbayeva D.T. Iqtisodiyotning raqamlashtirishning afzaliklari va uning oqibatlari.....	185
Qosimov A.S. Jizzax viloyati mahallalarining qayta nomlanishi va demografik jarayonlar va iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlari.....	189
Qodirov A., Tulaganov E.J., Berdimurodov U.S. Inson kapitalini kapitalizatsiya qilish va samaradorligini oshirish.....	192
Saidkarimova M.I., Sobirov O.A. Sanoat korxonalarining raqobatbardoshligini oshirish yo'llari.....	199
Saidova M.J. Sanoat transformatsiyasi sharoitida kichik biznes va tadbirkorlikning o'rni (Andijon viloyati misolida)	203
Юсупов А.С., Пардаев Х.Ф. Динамическое управление международным портфелем акций: механизмы ребалансировки и преимущества глобальной диверсификации в условиях волатильности валютных рынков.....	206
Burxonov J.X., Soliyev I.I. Mehnat bozorini tartibga solishda innovatsion yondashuvlarning xorij tajribasi tahlili.....	213
Xaitbaev J.O. Mintaqa iqtisodiyotini barqarorligini ta'minlashda suv resurslaridan foydalanishning ko'p omilli ekonometrik modellari.....	217
Saidov U.S. Kichik tadbirkorlik subyektlarida ekologik innovatsiyalarni rag'batlantirishning moliyaviy yo'nalishlari.....	221
Nurmaxanmadov N.B. Iqtisodiyotning ekologiyaga ta'sir moyilligining oshib borishi muammosi.....	224
Xudayberdiyev K. Davlat xaridlarida elektron platformalar faoliyatini optimallashtirishda sun'iy intellektga asoslangan moderatsiya mexanizmlarining roli.....	230
Xolxo'jayev E.G'. Davlat xaridini tashkil etishda elektron savdolardan foydalanish samaradorligi hamda imkoniyatlari tahlili.	234
Rustamova F.A. Qishloq joylarda tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiy samaradorligini baholash va uni oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari.....	238
Ikromov A. Iqtisodiy jarayonlarni ekonometrik modellashtirishda integro-differensial tenglamalarning o'rni va ularni tadqiq etish.....	241
Sarimsakov B.R., Usmonov J.Q. Xorijiy mamlakatlarda inson kapitalidan qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida samarali foydalanish tajribalari.....	245
Maraimov I.R. O'zbekistonda kambag'allikni kamaytirish va aholi turmush farovonligini oshirish.....	251
Yusupov Sh.B. Xorazm viloyatida sanoat korxonalarining iqtisodiy samaradorligini baholash va oshirish yo'llari: 2020–2025 yillar tahlili va 2030 yilga prognoz.....	256
Chintemirova D.Sh. Hududlar kesimida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatining rivojlanish tendensiyalari.....	260
Xusanova Z.R. Ayollar tadbirkorligini rivojlantirishning samaradorlik ko'rsatkichlari va unga ta'sir ko'rsatuvchi omillar.....	265
Tajiboyev S.O., Gulimboyev S.I. Moliyaviy siyosatning investitsiya muhitiga ta'siri.....	270
Tajiboyev S.O. G'aznachilikda to'lovlarni amalga oshirish.....	275
Xaydarov M., Baxtiyorov I. Innovatsion iqtisodiyot g'oyalari va ularni oliy ta'lim tizimi orqali qo'llashning nazariy asoslari.....	279
Ким Т.В., «Зарубежный опыт развития циркулярной экономики и её роль в формировании ресурсосберегающей модели экономического развития».....	286

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” jurnali 5-son 2026 yil

Saydullayeva R.U. Analysis of financial efficiency and profitability in the green economy: the role of IAS and IFRS standards.....	292
Galatov A.A., Karimova G.A. O‘zbekistonda Islomiy moliyaviy xizmatlar ko‘rsatuvchi nobank tashkilotlar faoliyati va strategik boshqaruv tizimining tahlili.....	296
Tursunov F.U. Oliy ta‘lim sifati monitoringini takomillashtirish mexanizmlarini rivojlantirishning zamonaviy yondashuvlari... ..	300
Yakhshiboev R.E. Retrieval-augmented generative AI for smart learning content.....	303
Ergashev S.A. Sanoat korxonalarini barqaror rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish: ilmiy-nazariy va amaliy asoslar.....	307
Абдуллаева Р.Ғ., Тажибаева Н.Ф. Ўзбекистон иқтисодиётида инвестицияларнинг устувор йўналишлари ва ривожланиш истiqболлари.....	311
Sayfullayev J. Why organizations struggle to implement green management practices: key barriers and practical solutions.....	316
Sirojiddinov K.I. Korxonaning raqobatbardoshligini baholash usullari.....	319
Ibraximov X.S. Mintaqalarda tadbirkorlik muhitini shakllantirishda kichik biznesni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning o‘rni va mexanizmlari.....	324
Tajibayev K.Q. Farg‘ona vodiysida kichik biznes sub’ektlari raqobatbardoshligini oshirishning metodologik asoslari.....	328
Abdulxakimov Z.T. Barqaror rivojlanish evolyusiyasi va tarkibiy qismlari masalalari.....	332
Pazilidinov M.M. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishda xorijiy mamlakatlarning raqamlashtirish tajribasi.....	337
Жураева М.З., Ахмедов Р.М. Экосистема применения системного подхода в менеджменте транспортной инфраструктуры.....	341
Ахмедов Р.М. Основные требования к разработке системного подхода в менеджменте дорожного хозяйства Республики Узбекистан.....	348
Mamasiddiqova F.X. Qishloq xo‘jaligida mahallalar ixtisosligi: nazariy asoslar, regional tahlil va rivojlantirish istiqbollari.....	353
To‘rayev A.A. Mehnat bozorini texnologik transformatsiyalash sharoitida ishchi kuchi raqobatbardoshligini oshirish mexanizmlari.	358
Солиев И.И. Концептуальные основы институциональной автономии вузов в условиях модернизации системы образования Узбекистана.....	362
Xasanov S.Q. Sanoat korxonalarini rivojlantirishda modernizatsiya va klaster yondashuvining o‘rni.....	365
Murodov A. Aholining real pul daromadlarini va xarid qobiliyatini oshirishning nazariy asoslari.....	369
Карабаев Р.З. Искусственный интеллект в цифровой экономике Узбекистана.....	374
Rasulova Sh.A. Bozor iqtisodiyotida monopoliyaning mohiyati, shakllari va uning O‘zbekiston iqtisodiyotiga ta‘siri.....	378
Salimov A.F., Rasulova Sh.A. Bozor muvozanati va unga ta‘sir ko‘rsatuvchi omillar.....	381
Sattarova G.X. O‘zbekiston logistika bozorida yuk tashish xavflarini sug‘urta orqali kamaytirishning iqtisodiy samaradorligi.....	385
Муродхўжаева Ф.М. Махаллий саноатни шакллантиришда кластер ёндашуви ва 2030 йилгача трансформациянинг прогноз параметрлари (Наманган вилояти мисолида).....	389
Yoqubjonov R.R. Kichik biznes mahsulotlari raqobatbardoshligini oshirishda innovatsion yondashuvlar.....	396
Nasritdinov B.X. Risklarni integral baholash kichik biznesda moslashuvchan boshqaruv tizimi asbobi sifatida	400
Abdurazzoqov H.A. O‘zbekistonda yashil iqtisodiyotga o‘tish jarayonining hozirgi holati va tendentsiyalari.....	406
Turgunov M.M., Soliyev I.I. Milliy innovatsion tizim samaradorligini oshirishning strategik yo‘nalishlari.....	411
Kuzimuratova D.M. O‘zbekiston Respublikasida tijorat banklarining investitsiya faoliyatini rivojlantirish va takomillashtirish.....	414
Soyibjonov I.S. Kichik biznes va tadbirkorlik subyektlarini yashil iqtisodiyot tamoyillari asosida rivojlantirish.....	419
Axmadjanov I.I. Shaharlar va shahar aglomeratsiyalari mintaqalar va mamlakatlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining drayveri.....	423
Odinayev G‘.J. Nogironligi bo‘lgan aholi qatlamini strategik sohalarda band qilish loyihalari.....	427
Abduvahobov V.B. Jinoiy daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashishning global standartlari va O‘zbekiston tajribasi: kompleks tahlil.....	430
Қўзиёва Н.Н. Билвосита солиқларнинг шаклланиши ва ривожланиб бориши.....	435

**INVESTITSIYA MUHITI JOZIBADORLIGINI OSHIRISHNING XALQARO
TAJRIBALARI**

**МЕЖДУНАРОДНЫЙ ОПЫТ ПОВЫШЕНИЯ ПРИВЛЕКАТЕЛЬНОСТИ
ИНВЕСТИЦИОННОЙ СРЕДЫ**

**INTERNATIONAL EXPERIENCE IN INCREASING THE ATTRACTIVENESS OF THE
INVESTMENT ENVIRONMENT**

Narzullayeva Xilola Abdukomilovna

Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining mustaqil izlanuvchisi

ORCID: 0009-0006-6832-8792

Annotatsiya

Maqolada taraqqiy etgan va rivojlanayotgan mamlakatlarda investitsiya muhitining jozibadorligini oshirish omillari tadqiq etilgan. Investitsiya muhiti jozibadorligini oshirishning jahon tajribasida institutsional muhit va qonun ustuvorligi, soliq va moliyaviy rag‘batlantirishlar, infratuzilma va innovatsion ekotizim, davlat boshqaruvi va raqamlashtirish, xalqaro integratsiya va erkin savdo, ESG tamoyillari va barqaror rivojlanish, maxsus iqtisodiy zonalarni tashkil etish, bilim olib keluvchi investitsiyalarni rag‘batlantirish, infratuzilmani ildam rivojlantirish, ishchi kuchi sifatini oshirish yo‘nalishlari o‘rganilgan. Tadqiqot natijalari asosida ilg‘or xalqaro tajribalardan O‘zbekiston amaliyotida foydalanish imkoniyatlari asoslangan va bu borada taklif hamda tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: investitsiya, muhit, investitsiya muhiti, jozibadorlik, institutsional muhit, davlat boshqaruvi, siyosiy barqarorlik, raqamlashtirish, xalqaro integratsiya, maxsus iqtisodiy zonalar, xorijiy investitsiyalar, rag‘batlantirish, infratuzilma, soliq va bojxona imtiyozlari, erkin savdo, ishchi kuchi, investitsion salohiyat.

В статье рассматриваются факторы, способствующие повышению привлекательности инвестиционного климата в развитых и развивающихся странах. Мировой опыт повышения привлекательности инвестиционного климата включает следующие области: институциональная среда и верховенство права, налоговые и финансовые стимулы, инфраструктура и инновационная экосистема, государственное управление и цифровизация, международная интеграция и свободная торговля, принципы ESG и устойчивое развитие, создание специальных экономических зон, содействие инвестициям в наукоемкие отрасли, стремительное развитие инфраструктуры и повышение квалификации рабочей силы. На основе результатов исследования обоснованы возможности применения передового международного опыта в практике Узбекистана, а также разработаны предложения и рекомендации в этом отношении.

Ключевые слова: инвестиции, среда, инвестиционный климат, привлекательность, институциональная среда, государственное управление, политическая стабильность, цифровизация, международная интеграция, специальные экономические зоны, иностранные инвестиции, стимулы, инфраструктура, налоговые и таможенные льготы, свободная торговля, рабочая сила, инвестиционный потенциал.

This article examines factors contributing to the attractiveness of the investment climate in developed and developing countries. Global experience in enhancing the attractiveness of the investment climate includes the following areas: institutional environment and rule of law, tax and financial incentives, infrastructure and innovation ecosystem, public administration and digitalization, international integration and free trade, ESG principles and sustainable development,

the creation of special economic zones, promoting investment in knowledge-intensive industries, rapid infrastructure development, and workforce development. Based on the research results, the possibilities of applying best international practices to Uzbekistan are substantiated, and proposals and recommendations are developed in this regard.

Key words: investments, environment, investment climate, attractiveness, institutional environment, public administration, political stability, digitalization, international integration, special economic zones, foreign investment, incentives, infrastructure, tax and customs benefits, free trade, labor force, investment potential.

Bugungi globallashuv davrida investitsiya muhiti jozibadorligini yaxshilash orqali xorijiy investitsiyalarni jalb qilish nafaqat iqtisodiy o‘sish sur‘atlarini jadallashtirish, balki milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini ta‘minlashning bosh omiliga aylandi. Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT)ning Savdo va taraqqiyot konferensiyasi (UNCTAD)ning hisobot ma‘lumotlariga ko‘ra, “2025-yilda dunyo bo‘ylab to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar oqimi 14 foizga o‘sib, 1,6 trln AQSH dollariga yetdi, biroq to‘qimachilik, elektronika, mashinasozlik sektorlarida investitsion loyihalar soni keskin kamayib, 25 foizga, xalqaro infratuzilma loyihalari 10 foizga qisqardi” [1]. Dunyodagi geosiyosiy vaziyat va geoiqtisodiy o‘zgarishlar, iqtisodiy noaniqliklar va investitsiyaviy zaiflashuvlar fonida investitsiya muhitining jozibadorligini ta‘minlash milliy iqtisodiyotning yashovchanligi va raqobatbardoshligini ta‘minlovchi strategik omil hamda iqtisodiyotning tashqi zarbalarga bardoshligini ta‘minlovchi eng muhim himoya vositasidir. Shu nuqtai nazardan jahonning aksariyat mamlakatlarida investitsiya muhiti jozibadorligini oshirishga alohida e‘tibor qaratilmoqda.

Iqtisodchi-olimlardan T.Teplova fikricha, “mamlakatning investitsiya muhiti – bu ma‘lum bir vaqtda ma‘lum bir hududga xos bo‘lgan siyosiy, iqtisodiy, institutsional, ijtimoiy va boshqa sharoitlarning shakllangan majmui bo‘lib, u investitsiya faoliyatini amalga oshirish imkoniyatlari va jozibadorligini belgilaydi” [2]. Ta‘rifda “siyosiy, iqtisodiy, institutsional, ijtimoiy va boshqa sharoitlar majmui” deb ko‘rsatilishi investitsiya muhitining kompleks tabiatini ochib beradi. Bu yondashuv institutsional muhit hamda makroiqtisodiy barqarorlik omillarining ahamiyatini hisobga oladi.

Investitsion jozibadorlik xususida tadqiqot olib borgan iqtisodchi-olimlardan Sh.Mustafakulovning monografiyasida “Investitsion muhit – ichki va tashqi investitsiyalarning kirib kelishiga ta‘sir ko‘rsatadigan yalpi iqtisodiy, siyosiy, moliyaviy sharoitdir” [3], deb ta‘riflangan. Avvalo, ta‘rifda “ichki va tashqi investitsiyalar”ga urg‘u berilishi uning muhim afzalligi hisoblanadi. Bu investitsiya muhitining nafaqat milliy, balki global kapital harakati bilan bog‘liqligini ko‘rsatadi. Bunday yondashuv zamonaviy ochiq iqtisodiyot sharoitiga to‘liq mos keladi.

“Investitsiyaviy jozibadorlik” tushunchasining mazmun-mohiyati ko‘rib chiqilayotgan paytda “investitsiyaviy salohiyat” va “investitsiyaviy muhit” tushunchalariga ham alohida e‘tibor qaratish lozim. Sababi, “mazkur atamalar bir-biri bilan chambarchas bog‘liq tushunchalar bo‘lib, investitsiyaviy salohiyat investitsiya faoliyatining resurs imkoniyatlarini aniqlab beradi va ushbu resurslardan foydalanish, o‘z navbatida, tahlil qilinayotgan obyektning investitsiyaviy jozibadorligiga bog‘liq bo‘ladi va albatta, shart-sharoitlar va turli omillarni investitsiyaviy muhit holatini belgilab beradi” [2].

Investitsiyaviy jozibadorlik bu subyektiv tushuncha bo‘lib, investorning turi va uning maqsadlariga bog‘liq bo‘ladi. Investitsiyaviy muhit esa nari borsa obyektiv tushuncha bo‘lib, investitsiyalarning barcha ishtirokchilariga ta‘sir qiluvchi tendensiyalarni aks ettiradi. Bunda shunisi xarakterliki, investitsiyaviy salohiyat qanchalik yuqori bo‘lsa va investitsiya faoliyati riski qanchalik past bo‘lsa, investitsiyaviy jozibadorlik ham shuncha yuqori bo‘ladi hamda buning oqibatida investitsiyaviy faollik ham oshib boradi.

Amerikalik iqtisodchi-olimlardan Uilyam F.Sharp, Gordon Dj.Aleksander, Djeffri V.Beylining “Investitsiyalar” darsligida “investitsiya muhitining jozibadorligi, asosan, qimmatli qog‘ozlarning likvidligi va yuqori daromadlilik bilan belgilanadi hamda investitsiya muhiti bozorda sotiladigan qimmatli qog‘ozlar turlari va ularni sotib olish va sotish shartlari bilan tavsiflanadi” [5]. Berilgan ta‘rif investitsiya muhitining bir qismi – kapital bozorlariga oid jihatlarni (qimmatli qog‘ozlar likvidligi va

rentabellik) yaxshi yoritgan, chunki iqtisodiyoti taraqqiy etgan mamlakatlarda qimmatli qog‘ozlar bozori rivojlangan bo‘lib, investitsiyalar kapital bozoriga yo‘naltiriladi, biroq investitsiya muhitini to‘liq qamrab olmaydi. Shu nuqtai nazardan investitsiya muhiti jozibadorligini oshirish bo‘yicha xorijiy tajribalarni tadqiq etish maqsadga muvofiqdir.

Maqolada mantiqiy abstraksiya, tizimli tahlil, induksiya va deduksiya usullaridan keng foydalanilgan bo‘lib, tadqiqot jarayonida foydalanilgan nazariy hamda statistik materiallarning ishonchliligi vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Taraqqiy etgan, so‘ngra rivojlanayotgan mamlakatlarda investitsiya muhiti jozibadorligini oshirish tajribalarini quyidagi yo‘nalishlarda tadqiq etamiz.

1. Institutsional muhit va qonun ustuvorligi. Rivojlangan mamlakatlar tajribasidagi eng muhim jihat – xususiy mulk daxlsizligining kafolatlanishidir. Investor uchun mablag‘ kiritishdan oldin eng katta xavf mulkni davlat tomonidan tortib olinishi yoki adolatsiz sud tizimidir. Singapur va Buyuk Britaniya kabi davlatlarda tijorat nizolarini hal qiluvchi ixtisoslashgan xalqaro arbitraj sudlari faoliyati investor ishonchini oshiruvchi asosiy drayver hisoblanadi. “Yagona darcha” tamoyilining raqamlashtirilishi ma‘muriy to‘siqlarni keskin kamaytiradi. AQSH, Germaniya va Yaponiya kabi mamlakatlar investorlarning huquqlari qonun bilan qat‘iy himoya qilinadi. Mulk huquqining daxlsizligi, mustaqil sud tizimi va shaffof regulyator siyosat investitsiya xavfi (riski)ni kamaytiradi.

2. Soliq va moliyaviy rag‘batlantirish. Rivojlangan davlatlarda investitsiyalarni jalb qilish uchun soliq imtiyozlari, subsidiyalar va grantlar keng qo‘llaniladi. Masalan, Irlandiya korporativ soliq stavkasining pastligi (12,5%) bilan xorijiy investorlarni jalb qilishda katta yutuqlarga erishgan. Masalan, Google, Apple va Facebook kabi texnologik gigantlarning Yevropa shtab-kvartiralarini jalb qilgan. Shuningdek, Singapur investitsiyalarni rag‘batlantirish bo‘yicha samarali soliq siyosati va erkin iqtisodiy zonalar bilan ajralib turadi. Zamonaviy iqtisodiy yondashuvda “past soliq stavkasi” doim ham “ko‘p investitsiya” degani emas. Rivojlangan davlatlar ko‘proq soliq tizimining shaffofligi va barqarorligiga urg‘u berishadi. Singapur “Economic Development Board” (EDB) orqali investorlarga “birinchi kundan” boshlab hamrohlik qilish tizimi yo‘lga qo‘yilgan. Natijada, Singapur har yili o‘rtacha 90-100 milliard dollar miqdorida to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiya jalb qiladi. Germaniya va Yaponiyada ilmiy-tadqiqot ishlariga sarflangan mablag‘lar soliq bazasidan chiqarib tashlanadi. Bu esa iqtisodiyotga yuqori texnologiyali investitsiyalarni jalb qiladi. Rivojlangan mamlakatlarda investitsiyaviy soliq krediti amal qiladi. Bu mexanizm investorga ma‘lum muddat davomida soliq to‘lovlarini kechiktirish yoki qayta investitsiya qilish sharti bilan kamaytirish imkonini beradi.

3. Infratuzilma va innovatsion ekotizim. Infratuzilmaning yuqori darajada rivojlanganligi investitsiya muhiti jozibadorligini oshirishning muhim omillaridan biridir. Janubiy Koreya va Yaponiya yuqori texnologiyali infratuzilma, ilmiy-tadqiqot markazlari va innovatsion klasterlar orqali investitsiyalarni jalb qilmoqda. Bu yerda gap faqat yo‘llar haqida emas, balki yuqori tezlikdagi internet, 5G aloqasi va “yashil” energiya ta‘minoti haqida bormoqda. Rivojlangan davlatlar investitsiya muhiti jozibadorligini oshirishda ta‘lim va ilm-fan integratsiyasidan samarali foydalanadilar.

4. Davlat boshqaruvi va raqamlashtirish. Estoniya davlat boshqaruvini raqamlashtirish orqali investitsiya muhitini yaxshilashda ilg‘or tajribaga ega. Elektron hukumat tizimi orqali byurokratik to‘siqlar kamaytirilgan va biznes yuritish jarayoni soddalashtirilgan.

5. Xalqaro integratsiya va erkin savdo. Rivojlangan mamlakatlar xalqaro savdo kelishuvlari va integratsiya jarayonlari orqali investitsiyalarni jalb qiladi. Masalan, Yevropa Ittifoqi unga a‘zo mamlakatlar keng bozorga kirish imkonini yaratadi va investitsiya xavflarini kamaytiradi.

6. ESG tamoyillari va barqaror rivojlanish. So‘nggi yillarda rivojlangan mamlakatlar investitsiya siyosatiga ESG (Environmental, Social, and Governance) standartlarini qat‘iy kiritmoqda. Skandinaviya davlatlari “yashil” loyihalarga investitsiya kirituvchi kompaniyalar uchun arzonlashtirilgan kredit liniyalari va davlat kafolatlarini taqdim etadi. Korporativ boshqaruvning shaffofligi va korrupsiyaga qarshi kurash xalqaro reytinglarda mamlakat nufuzini oshiradi.

Rivojlangan mamlakatlar tajribasini iqtisodiyotimizga tatbiq etish uchun quyidagi ilmiy asoslangan qadamlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz:

- sud tizimini transformatsiya qilish. Xorijiy investorlar ishtirokidagi nizolarni ko‘rishda xalqaro huquq normalarining ustuvorligini ta‘minlash zarur;
- intellektual mulk himoyasini kuchaytirish. Bu yuqori texnologiyali kompaniyalarning kirib kelishi uchun “yashil chiroq” hisoblanadi;
- raqamli infratuzilmani rivojlantirish zarur va bunda davlat xizmatlarini to‘liq raqamlashtirish orqali inson omilini kamaytirish kerak;
- byurokratik to‘siqlarni keskin kamaytirish kerak. Investor uchun eng katta to‘siq – bu ruxsatnomalar olishdagi qiyinchiliklar. Buni hal qilish uchun “Yagona darcha” tizimining samaradorligini ta‘minlash talab etiladi, bunda investor barcha hujjatlarni bir nuqtada va onlayn tarzda rasmiylashtiradi;
- soliq va bojxona tizimini optimallashtirish kerak. Jozibadorlikni oshirish faqat soliqni kamaytirish degani emas, eng muhimi soliq tizimining shaffof va tushunarli bo‘lishidir. Kutilmagan soliq tekshiruvlarining yo‘qligi va imtiyozlarning aniq maqsadli (masalan, eksport yoki texnologiya uchun) berilishi muhim rol o‘ynaydi;
- inson kapitalini rivojlantirish ham investitsiya muhiti jozibadorligini oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Zamonaviy investor (ayniqsa axborot texnologiyalari va yuqori texnologiya sohasida) arzon ishchi kuchidan ko‘ra, malakali mutaxassislariga ko‘proq ahamiyat beradi. Ta‘lim tizimini ishlab chiqarish bilan integratsiya qilish investitsiyaviy jozibadorlikning uzoq muddatli omilidir.
- xavflarni sug‘urtalash va kafolatlar ham katta ahamiyatga ega. Davlat tomonidan investorlarga turli kafolatlar berilishi, masalan, foydani erkin repatriatsiya qilish (o‘z davlatiga olib chiqib ketish) va mahalliy qonunchilik o‘zgargan taqdirda ham eski qonunlarning ma‘lum muddat amalda qolishining qo‘llanilishi muhim hisoblanadi.

Investitsiya muhitining jozibadorligi bu faqat iqtisodiy ko‘rsatkich emas, balki davlat institutlarining investor oldidagi mas‘uliyati va barqarorligining ko‘zgusidir. Agar mamlakatda investitsiya muhiti yaxshilansa, kapital oqimi ko‘payadi, yangi ish o‘rinlari yaratiladi, zamonaviy texnologiyalar kirib keladi hamda aholining sotib olish qobiliyati va turmush darajasi yanada oshadi.

Shu bilan birga, hatto rivojlangan mamlakatlarda ham investitsiya muhitiga ta‘sir etuvchi ayrim xatarlar mavjud. Ularga global iqtisodiy inqirozlar, geosiyosiy ziddiyatlar (ayniqsa hozirgi davrda kuzatilayotgan harbiy harakatlar), texnologik o‘zgarishlar va ekologik cheklolar kiradi. Bu omillar investitsiya qarorlariga salbiy ta‘sir ko‘rsatishi mumkin. Rivojlangan mamlakatlar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, investitsiya muhitining jozibadorligini oshirish kompleks va tizimli yondashuvni talab etadi. Huquqiy kafolatlarni kuchaytirish, soliq siyosatini optimallashtirish, infratuzilmani rivojlantirish, raqamlashtirishni kengaytirish va xalqaro integratsiyani chuqurlashtirish investitsiyalarni jalb qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. O‘zbekiston kabi rivojlanayotgan mamlakatlar ushbu tajribalardan samarali foydalanib, milliy xususiyatlarni hisobga olgan holda investitsiya siyosatini takomillashtirishi maqsadga muvofiqdir. Rivojlanayotgan mamlakatlar uchun investitsiya muhitining jozibadorligini oshirish strategik ahamiyatga ega bo‘lib, u to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar oqimini ko‘paytirish, milliy iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish va barqaror rivojlanishga erishish imkonini beradi. Bu borada Xitoy tajribasi O‘zbekiston uchun katta imkoniyatlar yaratadi. Xitoyning investitsiya muhiti jozibadorligini oshirish borasidagi tajribasi jahon iqtisodiyoti tarixidagi eng muvaffaqiyatli fenomenlardan biri hisoblanadi. Xitoy 1978-yildagi “Ochiq eshiklar” siyosatidan boshlab, qisqa davr ichida dunyoning “yirik fabrikasi”ga va yuqori texnologiyali investitsiyalar markaziga aylandi. Xitoy tajribasining asosiy ilmiy va amaliy jihatlari quyidagilardan iborat:

1. Maxsus iqtisodiy zonalar modeli. Xitoy islohotlarni butun mamlakat bo‘ylab emas, balki alohida hududlarda sinovdan o‘tkazishdan boshlagan. 1980-yilda Shenchjen birinchi maxsus iqtisodiy zona sifatida tashkil etildi. Bu yerda investorlarga soliq imtiyozlari, yerdan foydalanishda yengilliklar va eksport uchun qulay infratuzilma yaratib berildi.

2. “Texnologiya evaziga bozor” strategiyasi. Xitoy shunchaki kapital emas, balki bilim olib keluvchi investitsiyalarni rag‘batlantirdi. Uzoq vaqt davomida xorijiy kompaniyalarga Xitoy bozoriga kirish uchun mahalliy hamkor bilan qo‘shma korxona tuzish sharti qo‘yildi. Bu mahalliy mutaxassislarning zamonaviy texnologiyalarni o‘zlashtirishiga xizmat qildi. Xorijiy investorlarga

mahsulot tarkibidagi mahalliy xom-ashyo va butlovchi qismlar ulushini oshirish talablari qo‘yildi, bu esa ichki sanoat zanjirini rivojlantirdi.

3. Infratuzilmani ildam rivojlantirish. Xitoyning investitsiyaviy jozibadorligi “avval infratuzilma, keyin zavod” tamoyiliga asoslanadi. Davlat yuqori tezlikdagi temir yo‘llar, zamonaviy portlar va energiya tizimlariga ulkan mablag‘ tikdi. Bu investorlar uchun logistika xarajatlarini keskin kamaytirdi.

4. Huquqiy va institutsional islohotlar. Investor ishonchini mustahkamlash uchun Xitoy qonunchilikni xalqaro standartlarga moslashtirdi: “Xorijiy investitsiyalar to‘g‘risida”gi yangi qonun (2020-yil) qabul qilindi va bu qonun intellektual mulkni himoya qilish, texnologiyalarni majburiy berishni taqiqlash va xorijiy investorlarga “milliy rejim” (mahalliy kompaniyalar bilan teng huquqlilik) berishni kafolatlatdi. “Bir darcha” tizimi orqali biznesni ro‘yxatdan o‘tkazish va litsenziya olish muddatlari bir necha kungacha qisqartirildi.

5. Ishchi kuchi sifatini oshirish. Xitoy arzon ishchi kuchi bosqichidan malakali muhandislar bosqichiga o‘tdi. Ta‘lim tizimi ishlab chiqarish ehtiyojlariga moslashtirildi. Har yili millionlab muhandis va axborot texnologiyalari bo‘yicha mutaxassislar yetishtirilishi yuqori texnologiyali kompaniyalar (masalan, Tesla, Apple) uchun Xitoyni almashtirib bo‘lmas maydonga aylantirdi.

Turkiyaning investitsiya muhiti jozibadorligini oshirish bo‘yicha tajribasi rivojlanayotgan iqtisodiyotlar uchun o‘ziga xos maktab hisoblanadi. Turkiya ayniqsa 2000-yillarning boshidan boshlab tizimli islohotlar orqali xorijiy investitsiyalar oqimini keskin oshirishga erishdi. Turkiya tajribasining eng muhim ilmiy-amaliy yo‘nalishlari quyidagilardan iborat:

1. Liberallashtirish va huquqiy islohotlar. Turkiyaning investitsiyaviy burilishi 2003-yilda qabul qilingan “To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar to‘g‘risida”gi qonun bilan bog‘liq bo‘lib, uning asosiy ilmiy yangiligi: milliy rejim, ya‘ni xorijiy investorlar mahalliy investorlar bilan mutlaqo teng huquqqa ega bo‘ldi; ruxsat berish tizimidan xabardor qilish tizimiga o‘tdi, investitsiya qilish uchun oldindan ruxsat olish bekor qilindi, faqatgina ro‘yxatdan o‘tgandan so‘ng xabar berish tizimi joriy etildi; xalqaro arbitraj, ya‘ni nizolarni xalqaro sudlarda hal qilish huquqi qonun bilan mustahkamlandi.

2. Investitsiyalarni qo‘llab-quvvatlash va targ‘ib qilish agentligi. Turkiya investitsiyalarni jalb qilishda “Investorning advokati” modelini yaratdi. Prezident huzuridagi Investitsiya ofisi: investorga “bir darcha” tamoyili asosida xizmat ko‘rsatadi; loyiha g‘oyasidan tortib, zavod qurilishi va faoliyatni boshlaguncha bo‘lgan barcha bosqichlarda hamrohlik qiladi; vazirliklar o‘rtasidagi byurokratik to‘siqlarni investor nomidan hal qiladi.

3. Sanoat zonolari va klasterlashtirish. Turkiyaning eng muvaffaqiyatli loyihalaridan biri – Uyushgan sanoat zonolari hisoblanadi. Davlat investor uchun yo‘l, gaz, elektr va suv bilan ta‘minlangan yerlarni taqdim etadi. Ushbu zonalarda ishlab chiqaruvchilar qo‘shilgan qiymat solig‘i, bojxona bojlari va ba‘zi hollarda ko‘chmas mulk solig‘idan ozod qilinadi. Tadqiqot va ishlanmalar (R&D) bilan shug‘ullanuvchi kompaniyalar uchun alohida “Texnologiyalarni rivojlantirish zonolari” yaratilgan.

4. Sektorlashtirilgan va hududiy rag‘batlantirish tizimi. Turkiya iqtisodiyotida “hamma uchun bir xil imtiyoz” emas, balki manzilli yondashuv qo‘llaniladi. Mamlakat 6 ta hududga bo‘lingan. Rivojlanish darajasi past bo‘lgan sharqiy hududlarga investitsiya kiritganlarga eng ko‘p (solliqlarni 90 foizgacha kamaytirish, sug‘urta badallarini davlat tomonidan to‘lash) imtiyozlar beriladi. Mamlakat importini kamaytirishga xizmat qiluvchi (masalan, kimyo yoki avtomobil sanoati) loyihalar uchun alohida qo‘llab-quvvatlash paketi mavjud.

Turkiyaning “Yevropaga darvoza” maqomi. Turkiya Yevropa Ittifoqi bilan Bojxona ittifoqi a‘zosidir. Bu xorijiy investorlar uchun (masalan, Toyota, Ford, Renault) Turkiyada ishlab chiqarilgan mahsulotlarni Yevropa bozoriga hech qanday bojlarsiz olib kirish imkonini beradi. Turkiya o‘z investitsiya muhitini targ‘ib qilishda ushbu geoiqtisodiy ustunlikdan mahorat bilan foydalanadi.

Ozarbayjonning investitsiya muhitini yaxshilash borasidagi tajribasi ko‘p jihatdan O‘zbekistonga o‘xshash: ikkala davlat ham tabiiy resurslarga boy va iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish (neft-gazga qaramlikni kamaytirish) yo‘lidan bormoqda. Ozarbayjonning so‘nggi 20 yildagi

muvaffaqiyati “Neft kapitalini inson kapitali va noneft sektoriga yo‘naltirish” tamoyiliga asoslangan. Ozarbayjon tajribasining eng muhim yo‘nalishlarini tahlil qilamiz.

1. “ASAN xizmat” (ASAN Service) va byurokratiyaning tugatilishi. Ozarbayjonning investitsiya muhitini yaxshilashdagi eng katta brendi – bu ASAN (Azerbaijan Service and Assessment Network) tizimidir. Ushbu tizim davlat va biznes o‘rtasidagi korrupsion xavflarni “nol”ga tushirdi. Investorlar litsenziya, ruxsatnoma va boshqa hujjatlarni bitta markazdan, raqamlashgan va shaffof tizim orqali oladilar. Davlat xizmatlarining soddalashtirilishi biznes yuritish xarajatlarini keskin kamaytirdi.

2. Alat erkin iqtisodiy zonasi (AFEZ). Ozarbayjon o‘zining geostrategik joylashuvidan foydalanib, Kaspiy dengizi bo‘yida Alat erkin iqtisodiy zonasini tashkil etdi. Alat zonasining o‘ziga xos jihati shundaki, u yerda alohida qonunchilik amal qiladi. Bu zonaning o‘z sudi va arbitraj tizimi bo‘lib, u mamlakatning umumiy sud tizimidan mustaqil ishlaydi. Zonada ishlab chiqarilgan va eksport qilinadigan mahsulotlar uchun barcha soliqlar 0 foiz qilib belgilangan.

3. Neft jamg‘armasi (SOFAZ) va makroiqtisodiy barqarorlik. Ozarbayjon Davlat Neft Jamg‘armasi (SOFAZ) investitsiya muhitining barqarorligini ta‘minlovchi “xavfsizlik yostiqchasi” vazifasini o‘taydi. Jamg‘arma mablag‘lari milliy valyuta (manat) kursini barqaror ushlab turish va yirik infratuzilma loyihalarini (masalan, Boku-Tbilisi-Jayhon quvuri) moliyalashtirishga yo‘naltiriladi. Investor mamlakatning katta oltin-valyuta zaxirasi borligini ko‘rib, valyuta devalvatsiyasi xavfi pastligiga ishonadi.

4. Sanoat parklari va “Soliq ta‘illari”. Ozarbayjonda noneft sektorini rivojlantirish uchun Sumgait kimyo sanoat parki kabi yirik maydonlar yaratilgan. Sanoat parki rezidenti bo‘lgan investorlar 7 yil davomida mulk solig‘i, yer solig‘i, foyda solig‘i va uskunalar importi uchun bojxona to‘lovlaridan ozod qilinadi. Davlat investor uchun barcha kommunikatsiyalarni (energiya, temir yo‘l, aloqa) bepul zavod eshigigacha olib keladi.

5. Raqamli iqtisodiyot va innovatsiyalar. Ozarbayjon investitsiyalarni ko‘proq yuqori texnologiyalarga jalb qilish uchun “Raqamli ijro hokimiyati va elektron hukumat tizimini rivojlantirmoqda. Bu biznesni masofadan boshqarish va soliq hisobotlarini topshirishni inson omilisiz amalga oshirish imkonini beradi.

Qozog‘iston Markaziy Osiyo mintaqasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish bo‘yicha yetakchi mamlakat hisoblanadi. Uning tajribasi shuni ko‘rsatadiki, faqatgina tabiiy resurslar (neft va gaz) emas, balki institutsional islohotlar va xalqaro huquqiy standartlarni milliy darajaga olib chiqish asosiy muvaffaqiyat omili bo‘lgan. Quyida Qozog‘iston tajribasining eng muhim ilmiy-amaliy jihatlarini tahlil qilamiz.

1. “Astana” xalqaro moliya markazi (AIFC) – huquqiy innovatsiya. Qozog‘istonning eng katta yutug‘i – mamlakat ichida alohida “huquqiy orolcha” yaratganidir. Ingliz huquqi (Common Law): AIFC hududida Qozog‘istonning umumiy qonunlari emas, balki Ingliz huquqi tamoyillari amal qiladi. Bu dunyoning eng yirik investorlari uchun tanish va bashorat qilinadigan muhitdir. Markazning o‘z sudi mavjud bo‘lib, unda Buyuk Britaniyadan kelgan nafaqadagi tajribali sudyalalar faoliyat yuritadi. Bu tizim ijroiya hokimiyatidan mutlaqo mustaqildir.

2. “Kazakh Invest” – Milliy investitsiya agentligi. Qozog‘iston investitsiyalarni jalb qilishda “Front-to-back” (investor bilan boshidan oxirigacha ishlash) tizimini joriy etgan. “Kazakh Invest” shunchaki maslahatchi emas, balki investorning hukumat ichidagi “advokati” hisoblanadi. U investor nomidan viza olish, yer ajratish va litsenziyalar bilan bog‘liq masalalarni hal qiladi. Dunyoning yirik moliyaviy markazlarida (Nyu-York, London, Pekin) agentlikning doimiy vakillari ishlaydi.

3. Investitsiyaviy majburiyatlar va soliq imtiyozlari. Qozog‘iston soliq tizimini investorning loyiha hajmiga qarab differentsiatsiya qilgan. Agar investor ma‘lum miqdordan ortiq mablag‘ kiritisa (masalan, strategik sohalarga), u 10 yilgacha foyda solig‘idan va 8 yilgacha mulk solig‘idan ozod qilinadi. Texnologik asbob-uskunalarini olib kirishda bojxona to‘lovlaridan to‘liq ozod qilish mexanizmi samarali ishlaydi.


4. Investitsiyaviy Ombudsman instituti. Investorlarning huquqlarini himoya qilish uchun alohida Ombudsman instituti tashkil etilgan. Uning vazifasi davlat organlari tomonidan investorlarga nisbatan sodir etilishi mumkin bo‘lgan adolatsizliklarni o‘rganish va hukumat darajasida hal qilishdir.

5. Xususiylashtirish dasturi (IPO/SPO). Qozog‘iston davlat korxonalarini (masalan, “Kazatomprom”, “Kazmunaygaz”) xalqaro birjalarga (London, Astana) chiqarish orqali fond bozorini rivojlantirdi. Bu esa portfel investitsiyalarining oqimini ta’minladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, O‘zbekiston uchun Xitoyning quyidagi tajribalaridan foydalanish mumkin: klasteri yondashuv – investitsiyalarni tarqoq emas, balki aniq sohaviy klasterlar (masalan, elektrotexnika yoki to‘qimachilik) ko‘rinishida jalb qilish; infratuzilma kafolati – investor kelishidan oldin kommunikatsiya tizimlarini tayyorlab qo‘yish; texnologiyalar transferi – xorijiy investitsiyalarni mahalliy korxonalar bilan kooperatsiya qilishga yo‘naltirish.

O‘zbekiston uchun Turkiya tajribasidan 3 ta muhim dars: sanoat zonalarini boshqarish – O‘zbekistondagi erkin iqtisodiy zonalarini Turkiyadagi OIZ modeli asosida xususiy boshqaruv kompaniyalariga berish samaradorlikni oshiradi; hududiy differentsiatsiya – imtiyozlarni viloyatlarning rivojlanish darajasidan kelib chiqib, turlicha belgilash (masalan, Navoiy va Surxondaryo uchun farqli stavkalar); Investitsiya agentligi vakolatlarini kengaytirish – investitsiya agentligi faqat maslahat beruvchi emas, balki boshqa davlat organlaridan hujjatlarni talab qiluvchi qudratli organga aylanishi lozim. O‘zbekiston uchun Ozarbayjon tajribasidan asosiy xulosalar: sud mustaqilligi – maxsus iqtisodiy zonalarda xalqaro huquqqa asoslangan mustaqil sud tizimini yaratish (Alat zonasi kabi); xizmatlar markazi – davlat xizmatlari markazlarini (O‘zbekistondagi “Yagona darcha”) Ozarbayjonning ASAN modeli asosida yanada kengaytirish va korrupsiyaga qarshi filtr sifatida ishlatish; logistika markazi – O‘zbekistonning transport koridorlari kesishgan nuqtalarida “Quruqlik portlari” va erkin zonalarini yanada faollashtirish.

O‘zbekiston uchun Qozog‘iston tajribasidan 3 ta xulosa: sud tizimiga xalqaro ishonchni qaytarish – biz ham erkin iqtisodiy zonalar doirasida xorijiy sudyalardan ishtirokidagi mustaqil tizimni kengaytirishimiz lozim; tizimli xususiylashtirish – yirik davlat kompaniyalarining ulushlarini shaffof tarzda xorijiy investorlarga sotish; ingliz huquqini mahalliyashtirish – xalqaro biznes shartnomalarida mahalliy qonunchilik bilan birga ingliz huquqi tamoyillarini qo‘llash imkoniyatini qonunan mustahkamlash. Yuqoridagilardan kelib chiqib, investitsion muhit jozibadorligini oshirishning taraqqiy etgan va rivojlanayotgan mamlakatlar tajribasi bo‘yicha quyidagi yo‘nalishlarni alohida qayd etish zarur (1-rasm):



1-rasm. Investitsion muhit jozibadorligini oshirishning taraqqiy etgan va rivojlanayotgan mamlakatlar tajribasi

Investitsion muhit jozibadorligini oshirishda taraqqiy etgan va rivojlanayotgan mamlakatlar yondashuvlari o‘zaro farq qilsa-da, bir-birini to‘ldiruvchi xususiyatga ega ekani ko‘rinadi. Taraqqiy etgan davlatlarda asosiy e‘tibor institutsional barqarorlik, qonun ustuvorligi, innovatsion ekotizim va xalqaro integratsiyani chuqurlashtirishga qaratilgan. Rivojlanayotgan mamlakatlar esa investitsiyalarni jalb qilishda maxsus iqtisodiy zonalar, soliq va ma‘muriy imtiyozlar, infratuzilmani rivojlantirish hamda mehnat resurslari sifatini oshirishga ustuvor ahamiyat beradi. Shuning uchun samarali investitsion siyosat institutsional islohotlar va rag‘batlantiruvchi mexanizmlarni uyg‘unlashtirish orqali barqaror iqtisodiy o‘shishni ta‘minlashga xizmat qiladi.

Yuqoridagi tajribalardan kelib chiqib, O‘zbekiston uchun eng to‘g‘ri yo‘l va amaliy xulosalarni quyidagicha ifodalash mumkin:

1. Institutsional muhitni tubdan isloh qilish. Rasmning ikkala qismida ham institutsional islohotlar va qonun ustuvorligi ta‘kidlangan. O‘zbekiston uchun bu xususiy mulk himoyasini amalda kuchaytirish (investor ertangi kuniga ishonishi uchun); sud tizimi mustaqilligini ta‘minlash, toki nizolar adolatli hal etilsin;

2. Maxsus iqtisodiy zonalar modelini takomillashtirish. Rivojlanayotgan davlatlar (Xitoy, Turkiya) tajribasidagi kabi maxsus iqtisodiy zonalar shunchaki “soliq imtiyozi beriladigan joy” emas, balki yuqori texnologiyali klasterlarga aylantirish lozim. Infratuzilmani (elektr, gaz, logistika) davlat tomonidan “ildam rivojlantirish” (rasmdagi 3-band) investor uchun eng katta rag‘batdir.

3. “Intellectual” investitsiyalarga e‘tibor. Rasmda “Bilim olib keluvchi investitsiyalarni rag‘batlantirish” va “Ishchi kuchi sifatini oshirish” bandlari juda muhim: O‘zbekiston faqat arzon ishchi kuchi bilan emas, balki malakali kadrlari bilan investorni jalb qilishi kerak. Xorijiy investorlardan nafaqat pul, balki nou-xau (know-how) va zamonaviy boshqaruv texnologiyalarini olib kelishni talab qilish yoki rag‘batlantirish.

4. Raqamlashtirish va ESG tamoyillari. Taraqqiy etgan davlatlar tajribasidan (Singapur, Janubiy Koreya) davlat boshqaruvini to‘liq raqamlashtirish kerak va investor bilan amaldor o‘rtasidagi inson omilini kamaytirish korrupsiyani yo‘qotadi. ESG (Ekologik, Ijtimoiy va Korporativ boshqaruv) zamonaviy yirik investorlar (Apple, Samsung, Tesla kabilar) faqat “yashil” energiya va ijtimoiy mas‘uliyat mavjud joyga sarmoya kiritadi. O‘zbekiston bu standartlarni joriy etishni tezlashtirishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Доклад о мировых инвестициях за 2025 год. Издание Организации Объединенных Наций, опубликовано Конференцией Организации Объединенных Наций по торговле и развитию УНСТАД/ВИР/2025 (Овервью). – 36 с. Мировые потоки прямых иностранных инвестиций выросли после двух лет спада | Новости ООН.
2. Теплова Т.В. Инвестиции: учебник и практикум для вузов. – 2-е изд., перераб. и доп. – М.: Юрайт, 2024. – С. 74-75. – 781 с.
3. Mustafakulov Sh.I. Investitsion jozibadorlikning nazariy, metodologik va amaliy talqini. Monografiya. – T.: Ma‘naviyat, 2021. 15-b. – 352 b.
4. Niyazmetov M.R., Mamatov B.S. Investitsiyaviy jozibadorlik xususidagi ilmiy-nazariy qarashlar talqini. “Moliyaviy texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. 3-son 2023-yil. 33-b.
5. Uilyam F.Sharp, Gordon Dj. Aleksander, Djeffri V.Beyli. Investisii. – M.: INFRA-M, 2001. – S. 1-2.
6. Tadqiqot natijalari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.